

INVESTITSION MUHITNI RIVOJLANTIRISHDA SOLIQLARNING ROLINI OSHIRISHNING XORIJ TAJRIBASI

**Muqaddasxon
Yo'ldasheva**

*O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya
akademiyasi*

Annotatsiya

Mazkur maqolada investitsion muhitni rivojlantirishda soliqlarning rolini oshirishning xorij tajribasi o'rganilgan. Xalqaro amaliyotda soliq organlarining asosiy funksiyalari, mamlakatlarda YaIMga nisbatan soliq tushumlari ulushi ko'rsatkichlari, mamlakatlar soliq tizimlarining o'ziga xos jihatlari kabilar tadqiq qilingan. Amalga oshirilgan tahlillar asosida tegishli xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya, investor, investitsiya muhiti, soliq, soliq organlari, soliq imtiyozlari.

FOREIGN EXPERIENCE OF INCREASING THE ROLE OF TAXES IN DEVELOPING THE INVESTMENT CLIMATE

Abstract: This article studies foreign experience in increasing the role of taxes in developing the investment climate. The main functions of tax authorities in international practice, indicators of the share of tax revenues in relation to GDP in countries, specific aspects of the tax systems of countries, etc. are studied. Based on the analysis carried out, relevant conclusions are drawn.

Keywords: investment, investor, investment climate, tax, tax authorities, tax incentives.

Kirish

Investitsion muhitni rivojlantirishda soliqlar zamonaviy iqtisodiy siyosatni shakllantirishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi. Soliq tizimi investorlarning qaror qabul qilish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatadigan asosiy makroiqtisodiy omillardan biri sanaladi. Soliqlar darajasi va ularni qo'llash mexanizmlarining aniqligi investitsion risklarni baholashda muhim mezon bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli, soliqlarning investitsion faollikka ta'sirini chuqur tahlil qilish iqtisodiy o'sish omillarini aniqlash imkonini beradi. Investitsion muhitni baholashda soliq yukining og'irligi va barqarorligi alohida e'tiborga olinadi. Soliq imtiyozlari va rag'batlantiruvchi mexanizmlar investitsiyalar oqimini jadallashtirishda muhim vosita hisoblanadi. Ushbu mexanizmlarning samaradorligini o'rganish davlat

investitsiya siyosatini takomillashtirishga xizmat qiladi. Soliqlarni o'rganish orqali iqtisodiyot tarmoqlari kesimida investitsion faollikdagi tafovutlarni aniqlash mumkin. Bu esa resurslarni samarali taqsimlash uchun zarur ilmiy asoslarni yaratadi. Investitsion muhitni rivojlantirishda soliqlarning roli ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar sharoitida dolzarb hisoblanadi. Chunki bunday iqtisodiyotlarda xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish soliq siyosatiga bevosita bog'liq bo'ladi. Soliq tizimining shaffofligi investorlar ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga soliqlarni o'rganish fiskal barqarorlik va investitsion rag'batlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash imkonini beradi. Investitsion muhit va soliq siyosati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilish ilmiy yangiliklar yaratishga xizmat qiladi. Shu sababli investitsion muhitni rivojlantirishda soliqlarning rolini oshirishning xorij tajribasini o'rganish dolzarblik kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi

Dunyoning taraqqiy etgan davlatlarida hozirgi globallashtirish sharoitida soliq yukini kamaytirish, soliq turlarini unifikatsiya qilish va soliq stavkasini pasaytirish, soliqlarni to'lash va soliq hisobotlarini taqdim etishning elektron tizimini rivojlantirishda zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash, biznesni yuritish uchun qulay investitsion iqlim va ishbilarmonlik muhitini yaratish masalasiga alohida e'tibor berilmoqda. Mustaqillik yillari davomida mamlakatimiz soliq tizimi murakkab rivojlanish va taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi va bu boradagi islohotlar izchil takomillashib bormoqda. Jumladan, istiqbolning dastlabki yillarida, mamlakatimiz soliq tizimi davlat budjeti taqchilligini kamaytirish va daromad qismini mustahkamlashga yo'naltirilib, korxonalar foydasiga yuqori stavkalarda soliq solinishi belgilangan bo'lsa, soliq islohotlarining keyingi bosqichlarida korxonalarning mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishini rag'batlantirish, eksport qiluvchi korxonalarni qo'llab-quvvatlash, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantirishga o'tildi.

“Soliq yukini izchillik bilan kamaytirish, soliq solish tizimini soddalashtirish va soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish iqtisodiyotni jadal rivojlantirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini yaxshilash” [1] hozirgi sharoitda soliq amaliyotining juda dolzarb masalasi hisoblanadi. Xususan, soliq yukining yuqoriligi, xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi uning nomutanosib taqsimlanishi, soliq ma'murchiligidagi nomukammalliklar tufayli soliqlarni hisoblash va to'lashdagi muammolar, soliq to'lovchilar bilan soliq organlari o'rtasidagi munosabatlar, tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatiga to'sqinlik qiladigan nazorat funksiyalarining haddan tashqari ko'pligi ushbu masalaning tizimli muammolariga kiradi.

Ye.Dedkovning yozishicha: Soliq xarajatlari bu - soliqlar bilan bog'liq bo'lgan, hisoblangan majburiyatlardir [2]. Me'yoriy hujjatlar va iqtisodiy adabiyotlarda keltirilgan fikrlardan kelib chiqqan holda, soliq to'lovlarini soliq xarajatlari sifatida tan olish kerak degan xulosa qilindi.

“Korxona xarajatlari birinchidan, uning moliyaviy natijalarini aniqlashda qatnashsa, ikkinchidan, soliqqa tortish bazasini aniqlashda qatnashadi. Soliqqa tortish bazasini aniqlashda qatnashishi natijasida soliq xarajatlari tushunchasi namoyon bo'ladi. “Soliq xarajatlari” tushunchasi yangi iqtisodiy kategoriya emas, balki bu

tushunchani biz ko'proq soliq va boshqa majburiy ajratmalarga to'lovlar sifatida qo'llab kelganmiz" [3].

Soliq yukini izchillik bilan kamaytirish, soliq solish tizimini soddalashtirish va soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish iqtisodiyotni jadal rivojlantirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini yaxshilashning eng muhim shartlari hisoblanadi [1].

"Barcha darajadagi milliy va mahalliy hukumatlar tabiiy resurslarni o'zlashtirish va ulardan foydalanish natijasida yuzaga keladigan ekologik muammolarni yengillashtirish uchun tegishli ekologik soliqlarni belgilaydi va soliq siyosatini amalga oshiradi" [4].

"Ekologik soliqni amalga oshirish iqtisodiyotga turli xil ta'sir ko'rsatadi. Yashil soliqqa tortish ekologik toza iqtisodiy faoliyatni rag'batlantiradi va atrof-muhitga zarar yetkazuvchi faoliyatni to'xtatadi. Soliqqa tortishning tenglik, iqtisodiy samaradorlik va amalga oshirish imkoniyatini o'z ichiga olgan tamoyillariga rioya qilinishi zarur. Shuningdek, soliqqa tortishning atrof-muhitga ta'siri hisobga olinishi kerak" [5].

"Xalqaro iqtisodiyotga integratsiyalashuvni istagan rivojlanayotgan mamlakatlar uchun samarali va adolatli soliq tizimini yaratish oddiy ish emas. Bu mamlakatlardagi ideal soliq tizimi davlatdan ortiqcha qarz olmasdan asosiy daromadlarni oshirishi va buni iqtisodiy faoliyatni to'xtatmasdan hamda boshqa mamlakatlardagi soliq tizimlariga moslashtirgan holda amalga oshirishi kerak" [6].

"Soliqlar majburiy to'lovlarni ifoda etuvchi pullik munosabatlarni bildiradi. Bu munosabatlar soliq to'lovchilar bilan ularni o'z mulkiga aylantiruvchi davlat o'rtasida bo'ladi. Davlat uchun budjet daromadlarining asosiy manbayi hisoblangan soliqlar katta ahamiyatga ega" [7].

A.Halim va M.Rahman o'z tadqiqotlarida "korporativ tuzilmalar tomonidan to'lanadigan soliqlar hajmini oshirish soliqqa tortilgandan keyingi foydani pasaytiradi, chunki korporativ tuzilmalarning xarajatlari oshadi. Iqtisodiy o'sishni yuqori soliqlar bo'g'ib qo'yishi mumkin, bu esa investitsiyalarga (innovatsion faoliyat) to'sqinlik qilishi mumkin" [8], deya ta'kidlashgan.

Ch.Tran va S.Wende esa davlat soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari keltirilgan. "Davlat moliyasini o'rganishda soliq tizimi va soliq siyosatini baholashning ikkita asosiy yondashuvi mavjud. Ulardan biri normal yondashuv bo'lib, optimal soliq tizimini o'rganadi. Ikkinchisi ijobiy yondashuv hisoblanib, ortiqcha soliq yuki va mavjud soliq tizimi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganadi. Mazkur yondashuv davlat moliyasi va real soliq siyosatini ishlab chiqishda uzoq vaqtdan beri qo'llaniladi" [9].

S.Geschwind va F.Roesel ta'kidlashicha, "soliqlar davlat siyosatini yuritishda asosiy vosita hisoblanadi. Agar soliq tizimlari o'z samarasini bermasa, fuqarolar tengsizlikni kamaytirish uchun noroziliklarni boshlashlari mumkin. Hukumatlar moliyaviy va siyosiy ehtiyojlarga ko'ra soliq institutlarini moslashtirishi mumkin" [10].

N.Muxammadov fikriga ko'ra "soliq xizmati organlarida soliq obyektlari va ularning tushumlari hamda soliq ishini tashkil etishning avtomatlashtirilgan (axborot texnologiyalarini qo'llash) shakllarini yaratish va realizatsiya qilish. Soliq xizmati organlarida ish jarayonlarini, shuningdek, soliq obyektlari, tushumlari va soliq to'lovchilarning holati va harakati to'g'risidagi ma'lumotlarning yagona axborot

bazasini yaratish va unga zamonaviy axborot texnologiyalarni qo'llashishlari tashkil etiladi. O'zbekiston soliq tizimida bu borada 30 dan ortiq maxsus dasturiy mahsullardan foydalaniladi" [11].

S.Ochilovga ko'ra "hozirgi zamonaviy soliq ma'murchiligi nafaqat soliq qarzdorligini majburiy undirish mexanizmlarini takomillashtirish zarur, balki mazkur soliq qarzdorligini zamonaviy axborot telekommunikatsiya texnologiyalari orqali yuzaga kelishini oldini olish, soliq to'lovchilar tomonidan ixtiyoriy to'lash bo'yicha huquqiy savodxonligini oshirishga yo'naltirilgan targ'ibot va tushuntirish ishlariga e'tibor kuchaytirilishi maqsadga muvofiq" [12].


Mamlakatimizda "iqtisodiyotning raqobatbardoshligini, investitsiyaviy jozibadorlikni va ishbilarmonlik faolligini rag'batlantirishga qaratilgan soliq siyosati islohotlarini davom ettirish" [13] bugungi kunda dolzarb masalalardan ekanligini ham ta'kidlash lozim.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur maqolada investitsion muhitni rivojlantirishda soliqlarning rolini oshirishning xorij tajribasini o'rganishda analiz, sintez, qiyoslash, ilmiy abstraksiyalash kabi usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Xalqaro amaliyotda soliq ma'murchiligi soliq tizimini muvofiqlashtirish, tartibga solish va soliq tushumlarini nazorat qilish bilan shug'ullanadi. Boshqacha aytganda soliq ma'murchiligining asosiy maqsadi sifatida qonun bilan belgilangan soliqlarni yig'ish va undirishni ta'kidlash mumkin. Xalqaro amaliyotda soliq organlarining asosiy funksiyalariga quyidagilar kiradi (1-rasm).



1-rasm. Xalqaro amaliyotda soliq organlarining asosiy funksiyalari [14]

Xalqaro amaliyotda soliq organlarining asosiy funksiyalari davlat moliya tizimining barqaror ishlashini ta'minlashga qaratilgan kompleks institutsional vazifalar majmuasidan iborat hisoblanadi. Avvalo, soliq to'lovchilarni hisobga qo'yish, shu jumladan ro'yxatdan o'tmagan yoki noto'g'ri ro'yxatga olingan subyektlarni aniqlash orqali soliq bazasining to'liqligi ta'minlanadi. Soliq deklaratsiyalarini qabul qilish, qayta ishlash va uchinchi shaxslardan olingan ma'lumotlar bilan solishtirish axborotlarning ishonchliligini oshirishga xizmat qiladi. Olingan ma'lumotlarning to'g'riligi va to'liqligini tekshirish, jumladan auditorlik va soliq tekshiruvlari o'tkazish orqali soliq intizomi mustahkamlanadi. Soliq organlari tomonidan to'lanishi lozim bo'lgan soliqlar va majburiy to'lovlarni hisoblash fiskal tushumlarning aniq rejalashtirilishini ta'minlaydi. Qarzdorlik yuzaga kelgan holatlarda qarzni majburiy undirish mexanizmlarining qo'llanilishi byudjet daromadlarining barqarorligini saqlab qolishga xizmat qiladi. Ma'muriy shikoyatlar va soliq nizolarini ko'rib chiqish orqali soliq to'lovchilar huquqlarining himoyasi ta'minlanadi. Shu bilan birga, soliq to'lovchilarga axborot va maslahat xizmatlarini ko'rsatish ularning ixtiyoriy rioya darajasini oshiradi. Soliqqa oid huquqbuzarliklarni aniqlash va javobgarlikka tortish soliq tizimida intizomni ta'minlovchi muhim vosita hisoblanadi. Jarimalar va foizlarni undirish mexanizmlarining mavjudligi esa soliq majburiyatlarini o'z vaqtida bajarishni rag'batlantiruvchi ta'sirga ega bo'lib, xalqaro amaliyotda soliq boshqaruvining ajralmas elementi sifatida qaraladi.

1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar mamlakatlarda YaIMga nisbatan soliq tushumlari ulushi bo'yicha sezilarli farqlar mavjud ekanini ko'rsatadi. Jadvaldan ko'rinishicha, Daniya, Fransiya, Shvetsiya va Avstriya kabi rivojlangan Yevropa mamlakatlarida soliq tushumlarining YaIMga nisbatan ulushi yuqori darajada shakllangan. Xususan, Daniyada ushbu ko'rsatkich 2022–2024-yillar davomida 46–47 foiz atrofida saqlanib qolgan bo'lib, kuchli ijtimoiy davlat modelini aks ettiradi. Fransiya va Italiyada ham soliq yukining yuqoriligi davlatning iqtisodiyotdagi faol ishtiroki bilan izohlanadi. Germaniya va Niderlandiyada soliq tushumlari ulushi nisbatan barqaror bo'lib, iqtisodiy sikllarga mos ravishda o'zgarib borgan. Skandinaviya mamlakatlarida yuqori soliq ulushi keng qamrovli ijtimoiy xizmatlar bilan bog'liq ekanini ko'rsatadi. Kanada va Buyuk Britaniyada soliq tushumlari ulushi o'rtacha darajada bo'lib, davlat va bozor mexanizmlari o'rtasidagi muvozanatni ifodalaydi. AQShda soliq tushumlarining YaIMga nisbatan ulushi nisbatan pastroq bo'lib, bu mamlakatda fiskal siyosatning liberalligi bilan izohlanadi. Irlandiya va Chili kabi mamlakatlarda soliq ulushining pastligi investitsiyalarni rag'batlantirishga yo'naltirilgan soliq siyosatini aks ettiradi. Meksika va Turkiyada soliq tushumlari ulushi eng past ko'rsatkichlar qatoriga kirib, fiskal imkoniyatlarning cheklanganligini ko'rsatadi. Janubiy Koreyada soliq tushumlarining YaIMga nisbatan ulushi yillar davomida o'sib borayotgani iqtisodiy rivojlanish va fiskal bazaning kengayishi bilan bog'liq. Polsha va Portugaliyada soliq tushumlarining barqaror o'sishi davlat daromadlarini mustahkamlashga qaratilgan siyosat natijasi sifatida baholanadi. Ispaniyada 2022–2024-yillar davomida soliq ulushining sezilarli oshishi fiskal islohotlar samaradorligini ko'rsatadi. Jadval ma'lumotlari soliq tushumlari darajasi mamlakatlarning iqtisodiy modeli va ijtimoiy siyosati bilan chambarchas bog'liq ekanini tasdiqlaydi. Shu bois, YaIMga nisbatan soliq tushumlari ulushi ko'rsatkichi

davlatning iqtisodiyotdagi rolini baholashda muhim tahliliy mezon sifatida namoyon bo'ladi.

1-jadval

Mamlakatlarda YaIMga nisbatan soliq tushumlari ulushi ko'rsatkichlari [15]

№	Mamlakatlar	YaIMga nisbatan soliq tushumlari (% da)		
		2022	2023	2024
1.	Avstriya	42,6	42,2	43,5
2.	Belgiya	42,4	42,5	42,0
3.	Kanada	33,1	34,3	33,2
4.	Chili	21,0	19,4	22,2
5.	Chexiya	34,8	34,7	33,8
6.	Daniya	46,9	47,1	46,9
7.	Finlandiya	42,3	41,8	43,0
8.	Fransiya	44,9	45,3	45,1
9.	Germaniya	38,6	37,9	39,5
10.	Vengriya	36,4	36,1	34,0
11.	Islandiya	34,9	36,1	35,1
12.	Irlandiya	21,9	19,9	21,1
13.	Italiya	42,3	42,7	43,3
14.	Janubiy Koreya	27,2	27,7	29,9
15.	Meksika	16,3	17,8	16,7
16.	Niderlandiya	39,3	40,0	39,7
17.	Norvegiya	40,1	38,8	42,2
18.	Polsha	35,1	35,5	36,8
19.	Portugaliya	34,5	35,3	35,8
20.	Ispaniya	34,7	36,7	38,4
21.	Shvetsiya	42,8	42,3	42,6
22.	Shveytsariya	27,3	27,5	28,0
23.	Turkiya	23,1	23,9	22,8
24.	Buyuk Britaniya	32,2	32,1	33,5
25.	AQSh	25,2	25,8	26,6

2-jadvalda keltirilgan Xalqaro soliq raqobatbardoshligi indeksi reytingi mamlakatlarning soliq tizimlari samaradorligi va investitsion jozibadorligini kompleks baholash imkonini beradi. Jadvaldan ko'rinishicha, Estoniya 100 ball bilan umumiy reytingda birinchi o'rinni egallab, soliq tizimining soddaligi va neytralligi bilan ajralib turadi. Estoniyaning yuqori natijasi, ayniqsa, jismoniy shaxslar soliqlari va mulk soliqlari bo'yicha yetakchi o'rinlarni egallagani bilan izohlanadi. Latviya va Yangi Zelandiya reytingning yuqori pog'onalarida joylashib, korporativ va iste'mol soliqlari bo'yicha qulay sharoitlar yaratganini namoyon etadi. Shveytsariya va Chexiya kabi mamlakatlar yuqori umumiy ball to'plagan bo'lsa-da, ayrim soliq turlari bo'yicha o'rtacha natijalarga ega ekanligi kuzatiladi. Reytingda yuqori o'rinlarni egallagan mamlakatlar, odatda, soliq bazasining kengligi va stavkalarning nisbatan pastligi bilan ajralib turadi. Vengriya va Litva korporativ soliqlar bo'yicha nisbatan yaxshi pozitsiyalarni egallab, investitsiyalarni jalb etishga yo'naltirilgan siyosat yuritayotganini ko'rsatadi. Turkiya va Isroil reytingning yuqori o'rnligiga kirib, soliq tizimini bosqichma-bosqich liberallashtirish natijalarini namoyish etmoqda. Avstraliya va Shvetsiya kabi rivojlangan davlatlarda esa soliq tizimining barqarorligi yuqori bo'lsa-da, raqobatbardoshlik darajasi nisbatan o'rtacha baholanadi. Germaniya va Kanada reytingda o'rta pog'onalarda joylashib, soliq tizimining murakkabligi ularning

umumiy balliga salbiy ta'sir ko'rsatganini anglatadi. AQShning 22-o'rinni egallashi soliq stavkalari past bo'lishiga qaramay, tizimning murakkabligi va istisnolar ko'pligi bilan izohlanadi. Skandinaviya mamlakatlarida yuqori ijtimoiy soliqlar soliq raqobatbardoshligining nisbatan pasayishiga olib kelmoqda. Yaponiya va Janubiy Koreyada iste'mol soliqlari bo'yicha yuqori ko'rsatkichlar mavjud bo'lsa-da, boshqa soliq turlaridagi yuk umumiy natijani cheklaydi.

2-jadval

Xalqaro soliq raqobatbardoshligi indeksi reyting ko'rsatkichlari [16]

№	Mamlakatlar	Umumiy ro'yxatdagi o'rni	Umumiy natijasi (ball)	Soliq turlari bo'yicha egallagan o'rni			
				Korporativ soliqlar	Jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlar	Iste'mol soliqlari	Mulk solig'i
1.	Estoniya	1	100,0	2	1	14	1
2.	Latviya	2	89,9	1	4	26	5
3.	Yangi Zelandiya	3	89,7	32	7	1	2
4.	Shveytsariya	4	82,9	11	9	4	36
5.	Chexiya	5	81,9	6	5	25	6
6.	Lyuksemburg	6	80,6	26	14	6	14
7.	Vengriya	7	77,9	5	6	38	18
8.	Litva	8	76,9	3	11	31	7
9.	Turkiya	9	76,6	20	8	13	23
10.	Isroil	10	76,0	17	30	10	10
11.	Avstraliya	11	75,5	29	20	9	4
12.	Shvetsiya	12	74,2	8	18	22	8
13.	Slovakiya	13	74,1	21	3	29	3
14.	Gollandiya	14	71,3	25	22	16	22
15.	Germaniya	15	70,2	30	26	15	11
16.	Kanada	16	69,3	27	31	8	25
17.	Norvegiya	17	69,0	15	23	23	16
18.	Avstriya	18	68,6	23	32	17	15
19.	Kosta Rika	19	67,5	36	33	7	12
20.	Finlandiya	20	67,4	9	28	21	20
21.	Yaponiya	21	67,3	33	16	5	27
22.	AQSh	22	66,8	22	21	3	29
23.	Sloveniya	23	66,1	7	12	32	26
24.	Belgiya	24	65,1	14	13	24	31
25.	Janubiy Koreya	25	64,1	34	27	2	33


3-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar Kanada, Estoniya va Finlandiya soliq tizimlarining kuchli hamda kuchsiz jihatlarini soliq raqobatbardoshligi nuqtayi nazaridan taqqoslash imkonini beradi. Kanadaning soliq tizimi iste'mol soliqlarining nisbatan pastligi va iste'mol solig'i bazasining torligi bilan ajralib turadi, bu esa ichki talabni rag'batlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, korxonalarga mashina va uskunalariga kiritilgan investitsiyalarni darhol hisobdan chiqarish imkoniyatining berilishi investitsion faollikni oshiruvchi muhim omil hisoblanadi.

3-jadval

Mamlakatlar soliq tizimlarining o'ziga xos jihatlari [16]

N ^o	Mamlakat	Soliq tizimining kuchli tomonlari	Soliq tizimining kuchsiz tomonlari
1.	Kanada (Xalqaro soliq raqobatbardoshligi indeksidagi o'rni - 16)	Iste'mol solig'i bazasi nisbatan tor bo'lsa-da, iste'mol soliqlari past. Korxonalarga mashinalarga investitsiyalarni darhol hisobdan chiqarishga imkon beradi. Kanada boylik, mulk yoki meros soliqlarini undirmaydi.	Dividendlar bo'yicha soliq 39,3 foizni tashkil etadi, bu OECD ning o'rtacha ko'rsatkichi 24,2 foizdan ancha yuqori. Kanada kapital o'sishiga 26,75 foiz stavkada soliq soladi, OECD mamlakatlarida mazkur ko'rsatkich o'rtacha 19 foizni tashkil qiladi. 26,2 foiz korporativ soliq stavkasi OECD mamlakatlari orasidagi o'rtacha ko'rsatkichdan (23,6 foiz) yuqori.
2.	Estoniya (Xalqaro soliq raqobatbardoshligi indeksidagi o'rni - 1)	Estoniyaning korporativ daromad solig'i tizimi faqat taqsimlangan daromadlarni soliqqa tortadi, bu esa kompaniyalarga o'z daromadlarini soliqsiz qayta investitsiya qilish imkonini beradi. QQS keng bazaga taalluqlidir va kam muvofiqlik yukiga ega. Mulk solig'i faqat yerning qiymatiga nisbatan qo'llaniladi.	Estoniya atigi 61 davlat bilan soliq shartnomalariga ega, bu OECD o'rtacha ko'rsatkichidan (74 mamlakat) past. Estoniyaning hududiy soliq tizimi Yevropa mamlakatlari bilan cheklangan. Estoniyaning tor doiradagi kapitallashuv qoidalarida OECDda eng qat'iy qoidalaridan biridir.
3.	Finlandiya (Xalqaro soliq raqobatbardoshligi indeksidagi o'rni - 20)	Finlandiyada korporativ soliq stavkasi 20 foizni tashkil qiladi va bu ko'rsatkich boshqa mamlakatlarga nisbatan past. Korporativ va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini undirish tartibi boshqa mamlakatlarga qaraganda soda hisoblanadi. Finlandiyada 76 ta davlat bilan hududiy soliq tizimi va keng soliq shartnomalari tarmog'i mavjud.	Finlandiya ham mol-mulk, ham moliyaviy operatsiyalar uchun soliq undiradi. Kompaniyalar sof operatsion zararlarni oldinga o'tkazish imkoniyati cheklangan va inventarizatsiya uchun xarajatlarni hisobga olish usuli sifatida FIFO usulidan foydalanish bilan cheklangan. Finlandiyaning shaxsiy daromadlari bo'yicha eng yuqori qonunchilik darajasi nisbatan yuqori bo'lib, 51,3 foizni tashkil etadi (OECD mamlakatlarida o'rtacha 42,5 foiz).

2-rasmda tadbirkorlik subyektlarini toifalarga ajratish mezonlari ularning faoliyat ko'lamini va yillik daromad hajmiga asoslangan holda tizimli ravishda aks ettirilgan. Ushbu tasnif tadbirkorlik subyektlarini kichik, o'rta va yirik toifalarga ajratish orqali iqtisodiy siyosatda differensial yondashuvni qo'llash imkonini beradi. Kichik tadbirkorlik subyektlari tarkibiga yakka tartibdagi tadbirkorlar, mikrofirmalar va kichik korxonalar kiritilib, ularning daromad chegaralari aniq belgilangan. Xususan, mikrofirmalar jismoniy shaxslar tomonidan ta'sis etilgan hamda yillik daromadi bir milliard so'mgacha bo'lgan subyektlar sifatida tasniflanadi.



2-rasm. Tadbirkorlik subyektlarini toifalarga ajratish mezonlari [17]

Kichik korxonalar esa yillik daromadi bir milliard soʻmdan oʻn milliard soʻmgacha boʻlgan va yuridik shaxs maqomiga ega tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi. Ushbu toifa iqtisodiyotda bandlikni taʼminlash va tadbirkorlik muhitini kengaytirishda muhim rol oʻynaydi. Oʻrta tadbirkorlik subyektlari yillik daromadi oʻn milliard soʻmdan yuz milliard soʻmgacha boʻlgan xoʻjalik yurituvchi subyektlarni qamrab oladi. Mazkur toifa kichik biznes bilan yirik tadbirkorlik oʻrtasida oraliq boʻgʻin sifatida faoliyat yuritadi. Oʻrta tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotda ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va raqobat muhitini kuchaytirishga xizmat qiladi. Yirik tadbirkorlik subyektlari esa yillik daromadi yuz milliard soʻmdan yuqori boʻlgan korxonalarni oʻz ichiga oladi. Ushbu subyektlar mamlakat iqtisodiyotida strategik ahamiyatga ega boʻlgan tarmoqlarda faoliyat olib boradi. Yirik tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy salohiyati ularning investitsiya jarayonlarida faol ishtirok etishiga imkon yaratadi. Tadbirkorlik subyektlarini daromad mezonlari asosida tasniflash soliq siyosatini samarali yuritish uchun muhim asos boʻlib xizmat qiladi. Shu bilan birga, mazkur tasnif davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash choralari aniq toifalar kesimida belgilash imkonini beradi. Natijada, tadbirkorlik subyektlarini toifalarga

ajratish mezonlari iqtisodiy tartibga solish va barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim institutsional mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Investitsiya muhitini rivojlantirishda soliqlarning roli davlatning iqtisodiy siyosatida strategik ahamiyatga ega bo'lgan omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Soliq tizimi orqali investorlarga yaratiladigan rag'batlar va yuklamalar investitsiya qarorlarining yo'nalishi hamda hajmiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Soliq stavkalarining darajasi va barqarorligi uzoq muddatli investitsiyalarni rejalashtirishda muhim mezon hisoblanadi. Soliq siyosatining prognoz qilinuvchanligi investorlar ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, soliq imtiyozlari va preferensiyalari muayyan tarmoqlar va hududlarga kapital oqimini rag'batlantiradi. Investitsion faoliyatga ta'sir etuvchi soliqlarning samaradorligini baholash iqtisodiy resurslarni optimal taqsimlash imkonini beradi. Soliq yuki haddan tashqari yuqori bo'lgan sharoitda investitsiyalar faolligi pasayishi ehtimoli kuchayadi. Aksincha, soliq yukining oqilona darajada belgilanishi tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlaydi. Soliqlarning investitsiya muhitiga ta'siri nafaqat stavkalar, balki soliq bazasining kengligi va ma'murchilik sifati bilan ham belgilanadi. Soliq ma'murchiligining soddaligi va shaffofligi investorlar uchun tranzaksion xarajatlarni kamaytiradi. Shu jihatdan, raqamlashtirilgan soliq tizimlari investitsion jozibadorlikni oshirishga xizmat qiladi. Soliqlarning investitsiya muhitini rivojlantirishdagi roli, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki bu mamlakatlarda xorijiy investitsiyalarni jalb etishda soliq siyosati hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Soliq tizimi orqali fiskal barqarorlikni ta'minlash bilan birga investitsion rag'batlarni muvozanatlash zarur bo'ladi. Ushbu muvozanatni to'g'ri shakllantirish investitsiya muhitining barqaror va raqobatbardosh rivojlanishini ta'minlaydi.

Xulosa

Investitsiya muhitini rivojlantirishda soliqlarning roli bo'yicha olib borilgan tahlillar soliq siyosatining iqtisodiy o'sish va investitsion faollikka bevosita ta'sir ko'rsatishini yaqqol namoyon etadi. Soliq tizimining barqarorligi va prognoz qilinuvchanligi investorlar uchun uzoq muddatli strategik qarorlar qabul qilishda muhim omil hisoblanadi. Soliq yukining oqilona darajada belgilanishi tadbirkorlik subyektlarining investitsion faolligini oshirishga xizmat qiladi. Aksincha, soliq stavkalarining haddan tashqari yuqoriligi kapital oqimini cheklovchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Soliq imtiyozlari va rag'batlantiruvchi mexanizmlar ustuvor tarmoqlarga investitsiyalarni jalb etishda muhim vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, soliq imtiyozlarining samarasini baholash va ularni maqsadli qo'llash zarurati mavjud. Soliq bazasining kengligi va soliqlarni undirish mexanizmlarining soddaligi investitsion muhit sifatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Soliq ma'murchiligining shaffof va raqamlashtirilgan bo'lishi investorlar uchun tranzaksion xarajatlarni kamaytiradi. Xorijiy investitsiyalarni jalb etishda soliq tizimining xalqaro standartlarga mosligi alohida ahamiyat kasb etadi. Soliqlarning investitsion muhitga ta'siri mamlakatning umumiy raqobatbardoshligiga bevosita bog'liqdir. Soliq siyosati orqali fiskal barqarorlikni saqlab qolish bilan birga investitsiyalarni rag'batlantirish o'rtasida muvozanatni ta'minlash talab etiladi. Ushbu muvozanatni ta'minlash davlat moliyaviy siyosatining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Investitsiya muhitini

rivojlantirishda soliqlarning rolini chuqur o'rganish samarali iqtisodiy qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Bu jarayon soliq islohotlarini ilmiy asosda amalga oshirishga xizmat qiladi. Natijada, soliqlarning investitsion muhitni rivojlantirishdagi roli barqaror iqtisodiy o'sish va kapital oqimini kengaytirishning muhim omili sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 29 июндаги ПФ-5468-сонли “Ўзбекистон Республикасининг солиқ сиёсатини такомиллаштириш концепцияси тўғрисида”ги Фармони. – www.lex.uz
2. Дедкова Е.Г. Анализ и прогнозирование налоговых затрат на промышленных предприятиях : дис. канд. экон. наук: 08.00.10. – Орел, 2010. – 23 с.
3. Курбанов З.Н. Солиқ харажатлари ҳисобининг назарий масалалари.”Тадбиркорликни ривожлантириш йўлидаги тўсиқларни бартараф этиш ҳамда кулай ишбилармонлик муҳитини шакллантиришда солиқ сиёсатининг ўрни” мавзусидаги конференция материаллари. Тошкент, 2016. 147-148 бетлар.
4. Yaxin Liu, Jianping Ge. What kind of environmental fiscal and taxation policies can support green production of ionic rare earths? A computable general equilibrium analysis. // The Extractive Industries and Society Available online 27 December 2022. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S2214790X22001800>
5. Tii N. Nchofoung, Hervé Kaffo Fotio, Clovis Wendji Miamo. Green taxation and renewable energy technologies adoption: A global evidence. // Renewable Energy Focus, Volume 44, March 2023, Pages 334-343. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S175500842300011X>
6. Vito Tanzi, Howell Zee. Tax Policy for Developing Countries. // ECONOMIC ISSUES, № 27, March 2001. <https://www.imf.org/external/pubs/ft/issues/issues27/>
7. A.Vahobov, A.Jo'rayev. Soliqlar va soliqqa tortish. // Darslik, T.: - Sharq, 2009. – 448 b.
8. Md. Abdul Halim, Md. Mominur Rahman. The effect of taxation on sustainable development goals: evidence from emerging countries. // Heliyon, Volume 8, Issue 9, September 2022. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S240584402201800X>
9. Chung Tran, Sebastian Wende. On the marginal excess burden of taxation in an overlapping generations model. // Journal of Macroeconomics, Volume 70, December 2021. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0164070421000768>
10. Stephan Geschwind, Felix Roesel. Taxation under direct democracy. // Journal of Economic Behavior & Organization, Volume 200, August 2022, Pages 536-554. <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0167268122001949>
11. Muxammadov Nodir Karimovich. Mamlakatimizda soliq ma'murchiligida axborot texnologiyalarning zarurligi va uning ilmiy-nazariy asoslari tahlili. // Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies, 2023

12. Очилов Сохиб Тоғаймуродович. Солиқлар бўйича қарздорликларни камайтиришнинг хориж тажрибаси. // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2019. https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/31_Ochilov.pdf

13. Курбанов З.Н., Назаров А.К. Ўзбекистон Республикасида фискал ва солиқ сиёсатларининг асосий йўналишлари. // "Солиқ ва Ҳаёт" электрон илмий оммабоп журнал, I сон. 2022. – 36 б.

14. Matthijs Alink, Victor van Kommer. Handbook on Tax Administration (Second Revised Edition). // International Bureau of Fiscal Documentation, 2016. [https://www.ibfd.org/sites/default/files/2021-12/15_090_Handbook_on_Tax_Administration_\(Second%20Revised%20Edition\)_final_web_0.pdf](https://www.ibfd.org/sites/default/files/2021-12/15_090_Handbook_on_Tax_Administration_(Second%20Revised%20Edition)_final_web_0.pdf)

15. Revenue Statistics 2024 // OECD tax revenues. <https://www.oecd.org/tax/tax-policy/revenue-statistics-highlights-brochure.pdf>

16. International Tax Competitiveness Index Rankings. Tax Foundation, 2024. https://files.taxfoundation.org/20221013150933/International-Tax-Competitiveness-Index-2024.pdf?_gl=1*xg4rrm*_ga*MTc3MzY5ODQ1Mi4xNjc4NjgwMjc1*_ga_FP7KW DV08V*MTY3ODY4MDI3NS4xLjAuMTY3ODY4MDI3OS41Ni4wLjA.

О‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik subyektlarini toifalarga ajratish mezonlari hamda soliq siyosati va soliq ma’murchiligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-21-son Farmoni. 10.02.2023.